

“Davr bank” XATBda jismoniy shaxslarga bank kartasi hisobvarag‘ini ochish va ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha

OMMAVIY OFERTA

“Davr bank” Xususiy aksiyadorlik tijorat banki (keyingi o‘rinlarda - **bank**) jismoniy shaxsga (keyingi o‘rinlarda - **mijoz**) bank kartasi va hisobvarag‘ini ochish hamda xizmat ko‘rsatish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 367-369, 771-789-moddalariga muvofiq ommaviy oferta (keyingi o‘rinlarda - **oferta**) tuzishni taklif qiladi.

Mijoz bankning taklif etgan ofertasini harakatlari orqali akseptlashi, u tomonidan oferta tuzishga rozi bo‘lganligini hamda oferta talablarini e‘tirozsiz to‘liq qabul qilganligini bildiradi.

Ofertani mijoz mobil aloqa vositasi orqali bankning www.davrbank.u veb-saytidan yoki Bankning rasmiy mobil ilovasi orqali PDF- shaklida yuklab olishi mumkin.

1. Asosiy tushunchalar

1.1. Ofertada quyidagi asosiy tushunchalar va atamalardan foydalaniladi:

mijoz – bank kartasini ochishni so‘rab, Amaliyot Boshqarmasi, bank filiali yoki BXMGa, mobil ilova hamda bank rasmiy sayti orqali onlayn buyurtma bilan murojaat qilgan jismoniy shaxs;

bank kartasi - o‘z egasiga bank hisobvarag‘i orqali bank kartasining amal qilish muddati doirasida, naqd pulsiz shaklda hisob-kitoblarni amalga oshirish imkoniyatini beruvchi to‘lov kartasi;

virtual bank kartasi – internet orqali va onlayn to‘lovlar uchun mo‘ljallangan maxsus karta. Internet orqali to‘lovlar amalga oshirish uchun barcha rikvizitlarni o‘zida mujassam etgan va faqat elektron tarzda chiqariladigan karta hisoblanadi;

bank emitent – bank kartasi emissiyasini amalga oshiruvchi, o‘zi emissiya qilgan bank kartalariga mulk xuquqiga ega bo‘lgan va ularning saqlovchilari va ekvayerlari oldida ular tomonidan bank kartalaridan foydalanilgan holda hisob-kitoblarni amalga oshirish xuquqlari bo‘yicha o‘z nomidan majburiyatlarni zimmasiga olgan bank;

bank ekvayer – bank kartalari orqali tovar (ish, xizmat) sotuvchilari bilan operatsiyalar bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish hamda bank karta egasiga bevosita kassa yoki bankomat orqali naqd pul berish va infokioska orqali naqd pulsiz shaklda xizmat ko‘rsatishni amalga oshiruvchi bank;

milliy karta (keyingi o‘rinlarda - MK) - bank emitent tomonidan emissiya qilingan Uzcard/HUMO bank kartalari egasiga undagi mablag‘lar doirasida bank hisobvarag‘i orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish va hisobvarag‘idan naqd pul olish imkoniyatini beruvchi milliy to‘lov vositasi;

xalqaro karta (keyingi o‘rinlarda - XK) - bank emitent tomonidan emissiya qilingan “VISA”, “MASTERCARD” bank kartasi egasiga undagi mablag‘lar doirasida bank hisobvarag‘i orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish va hisobvarag‘dan naqd pul olish imkonini beruvchi xalqaro to‘lov vositasi;

xalqaro to‘lov tizimlarining emissiya tartibi - xalqaro to‘lov tizimlari (“Visa”, “Mastercard”) tomonidan bank kartalarini emissiya qilish bo‘yicha qo‘yilgan talablar;

pin-kod - shaxsiy identifikatsiya raqami, 4 ta raqamdan iborat maxfiy kod, karta hisobvarag‘idagi pul mablag‘larini boshqarish huquqini hamda mablag‘larni boshqarishga bank kartasi egasi tomonidan ruxsat berilganligini tasdiqlaydi. Ushbu kodni bankning mas‘ul xodimi tomonidan karta mijozga taqdim qilinayotganda mijoz o‘zi (yoki vakolatli shaxs) maxsus qurilmalar orqali qo‘yadi;

kontaktsiz to'lov - bank kartasini to'lov terminaliga va/yoki bankomatga tekkizish yo'li bilan to'lovni amalga oshirish usuli. To'lov tizimi tomonidan belgilangan miqdordagi to'lovlar pin-kodni kiritmasdan amalga oshiriladi;

“E-POS” terminali - bank kartasining egasiga onlayn xarid qilingan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni internet orqali amalga oshirish hamda qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa amaliyotlarni bajarish imkoniyatini beruvchi elektron vosita;

bankomat - bank kartasi orqali avtomat tarzda naqd pul mablag'larini olish uchun mo'ljallangan elektron qurilma;

infokiosk - “Online” rejimiga ega bo'lgan avtomatlashtirilgan texnik qurilma orqali mijoz o'z-o'ziga naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishi, bank kartasi qoldig'i to'g'risidagi ma'lumotlarni olish, “SMS” xabarnomani uyali aloqa telefoniga ulash kabi masofaviy xizmatlarni ko'rsatish;

tranzaksiya - bank kartasi egasi tomonidan xarid qilingan tovarlar, ish va xizmatlar uchun amalga oshirilgan to'lov;

bank kartasining blokirovkasi - xalqaro va mahalliy to'lov tizimining qoidalariga, O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq bank kartalarini amal qilishini to'xtatish yoki uni bekor qilish bo'yicha bank tomonidan ko'rilgan chora;

ko'chirma - mijozning talabiga ko'ra bankda shakllangan bank kartasi hisobvarag'idan ko'chirma;

HUMO/Uzcard to'lov tizimlari - tovar, ish (xizmat) uchun naqd pulsiz shaklda to'lovlarni amalga oshirish hamda naqd pul yechish imkonini beruvchi mahalliy va xalqaro to'lovlarni amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan tizim;

tovar (ish, xizmat) sotuvchisi - ekvayer bank bilan tuzilgan shartnomaga asosan tovar (ish yoki xizmat)lar uchun bank kartalaridan foydalangan holda amalga oshirilgan to'lovlarni qabul qilish majburiyatini olgan mahsulot sotuvchi, ish bajaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi yuridik shaxs (yoki yakka tartibdagi tadbirkor);

slip - bank kartasidan foydalangan holda operatsiya o'tkazilganligini tasdiqlovchi va o'zida operatsiya summasi, turi, sanasi, shuningdek bank kartasini hamda ushbu slipni shakllantirgan terminalni identifikatsiya qilish imkonini beruvchi axborotlarni aks ettiruvchi terminal kvitansiyasi;

bank tarifi - bank kartalari orqali bank operatsiyalari amalga oshirilganda, bank kartalarni muomalaga chiqarishda va ularni yangisiga almashtirib berishda undiriladigan komission to'lov;

minimal balans qoldig'i (sug'urta depoziti) - bank kartasi hisobvarag'ida saqlanishi majburiy bo'lgan pul mablag'larining minimal qoldig'i;

bankdan tashqari to'lov tizimi - to'lov tizimi belgilari va uning qoidalarini belgilovchi va bunday turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan yuridik shaxslar (CLICK, PAYME, PAYNET va b.);

masofaviy xizmat ko'rsatish tizimi – xizmatlarni yetkazib beruvchi va foydalanuvchi o'rtasidagi haq evaziga xizmatlardan elektron foydalanish uchun yetarli aloqani ta'minlaydigan (telekommunikatsiya vositalari, raqamli va axborot texnologiyalari, dasturiy ta'minot va uskunalarni majmui) tizim;

ichki nazorat tizimi hujjatlari – bankning jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishga qarshi hamda firibgarlikka qarshi kurashish doirasida qabul qilingan ichki hujjatlari va ulardagi talablar;

aksept – ofertaning to'liq va so'zsiz qabul qilinishi. Ofertani akseptlash shartnoma

tuzilganigini vujudga keltiradi va huquqiy ahamiyatga ega bo'ladi;

oferta (omnaviy oferta) – (keyingi o'rinlarda - oferta) jismoniy shaxslarga yuborilgan, bank kartasi hisobvarag'ini ochish va unga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq asosiy shartlarini o'z ichiga olgan, taklifni kiritgan shaxsning o'zini taklif yo'llangan va uni qabul qiladigan shaxs bilan shartnoma tuzgan deb hisoblash niyatini ifoda etadigan taklif;

"SMS xabarnoma" tizimi - bank mijozlarini hisobraqamlar holatining o'zgarganligi haqidagi axborotni bergan holda SMS kanallari bo'ylab xabardor qiluvchi avtomatik axborot tizimi. Mijoz arizasiga muvofiq unda ko'rsatilgan telefon raqamiga bank xodimi tomonidan yoki mijozniing o'zi tomonidan maxsus qurilmalar (bankomat, infokioska va boshqalar) orqali yoqiladi.

2. Shartnoma predmeti

2.1. Oferta shartnomasini akseptlagan mijozga bank hisobvarag'ini (milliy valyutada yoki chet el valyutasida) ochish, bank kartalarini chiqarish, shuningdek ushbu shartnoma va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq bank kartasi hisobvarag'iga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar shartnoma predmeti bo'lib hisoblanadi.

3. Ofertani akseptlash tartibi

3.1. Oferta Mijoz tomonidan quyidagilarga muvofiq akseptlanadi:

Bank tomonidan taqdim qilingan bank kartasi va hisobvarag'ini ochish hamda taqdim qilish haqidagi ariza blankasiga shaxsiga doir va boshqa tegishli ma'lumotlarini kiritish va uni tasdiqlash;

Bankning veb-sayti, mobil ilovasi yoki ruxsat bergan boshqa usullari orqali bank kartasi va hisobvarag'ini ochish bo'yicha masofadan turib ariza berish imkonini beruvchi vazifalarni bosqichma-bosqich bajarish.

3.2. Oferta akseptlanganligini (taraflar o'rtasida shartnoma tuzilganligini) Mijozning bank kartasi hisobvarag'ini ochish bo'yicha va taqdim qilishga doir elektron ma'lumotlarni bankning aloqa kanallari (mobil ilovasi, veb sayti) orqali bankka yo'llanilishi arizasi vazifasini bajaradi.

3.3. Oferta Mijozga hisobvara q ochilgan hamda bank kartasi taqdim qilingan bankning bo'linmasi joylashgan yerda tuzilgan hisoblanadi.

4. Oferta shartlari

4.1. Bank akseptni va belgilangan shaklga muvofiq arizani qabul qilgandan keyin arizada ko'rsatilgan (arizada ko'rsatilmagan xolda 10 bank ish kuni mobaynida) kundan kechiktirmay bank kartasi va hisobvarag'ini ochadi hamda taqdim qilishga tayyor holga keltiradi.

4.2. Mijozdan individual dizayndagi bank kartasiga ariza kelib tushgandan so'ng, unga 10 ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda, agar bunday Ariza Bankning mintaqada (viloyatlar) joylashgan tarkibiy bo'linmalari orqali qabul qilingan bo'lsa bu muddat 15 ish kunidan oshmagan muddatda bank kartasi taqdim etiladi.

4.3. Bank tomonidan emissiya qilingan bank kartasi identifikatsiya qilinganidan so'ng, Mijoz yoki uning vakolatli vakiliga qoidalarda belgilangan tartibda maxsus kitobga shaxsan imzolatilgan holda vakolatli xodim tomonidan taqdim etiladi. Bunda mijoz bank kartasi uchun parol(Pin-kod)ni shaxsan o'zi yoki u vakolat bergan shaxs tomonidan karta olinayotganda maxsus qurilmalar(terminal,bankomat,infokioska) orqali qo'yadi.

4.4. Bank kartasi autsorsingi yoki kurerlik xizmati orqali qo'shimcha haq evaziga yetkazib berilishi ham mumkin. Qo'shimcha haqning miqdori Bank tariflarida belgilanadi.

4.5. Bank kartasining muddati, bank kartasining old tomonida ko'rsatiladi. Bank

kartasining amal qilish muddati tugagandan so'ng hisobvaraqlar bank tomonidan bloklanadi.

4.6. Bank tomonidan bank kartasini chiqarish me'yoriy hujjatlar talablarida belgilangan qoidalar asosida rad qilinishi mumkin.

4.7. Bank kartasini yo'qotilganligi yoki shikastlanganligi to'g'risida bankka ariza kelib tushganda bir bank ish kun ichida bank kartasi mijoz talabiga ko'ra blokirovka yoki "Stop list"ga ko'yadi.

4.8. Bank kartasi Bank tomonidan Qoidalarda belgilangan hollarda yoki vakolatli organ tashabbusi bilan bloklanishi mumkin.

4.9. Mijoz uning bank kartasi yo'qolganda yoki shikastlanganda mobil ilova orqali ham bankning ishtirokisiz dasturiy cheklov (blokirovka) qo'yishi mumkin. Mijoz bank kartasidagi dasturiy cheklovlarni shaxsan bankka yozma murojaati asosida bekor qilishi mumkin.

4.10. Mijoz "Stop list"ga qo'yilgan bank kartasini o'rniga yangi bank kartasini olish uchun bank tarifida belgilangan xizmat haqi to'laydi.

4.11. Bank kartasining pin kodi uch marotaba noto'g'ri kiritilganida bank kartasi avtomatik ravishda bloklanadi.

4.12. Mijoz bank kartasiga kelib tushgan mablag'larini o'z vaqtida va to'g'ri kelib tushishi hamda ishlatilishi yuzasidan ma'lumotlarni bankdan olishi mumkin.

4.13. Mijozning bank kartasi hisobvarag'iga mablag'lar noto'g'ri kirim qilingan holatda bankni darhol ogohlantirishi va mablag'ni tegishli hisobvaraqa qaytarishi lozim.

4.14. Bank kartasining amal qilish muddati tugagandan so'ng hisobvaraqlar bank tomonidan dasturiy tarzda yopiladi, qoldiq mablag' harakatsiz depozitlar bo'yicha tegishli hisobvaraqa o'tkaziladi. Ushbu mablag'dan foydalanish mijozning arizasi va shaxsini tasdiqlovchi hujjati asosida bank tomonidan amalga oshiriladi.

4.15. "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat" qoidalariga muvofiq Bank kartalar bo'yicha operatsiyalar to'xtatib turilishi mumkin.

4.16. Bank O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan norezident-mijozlar tomonidan respublika banklaridagi hisobvaraqlarni ochish va ulardan foydalanish tartibi yoki xalqaro to'lov tizimining emissiya tartibi o'zgargan taqdirda, uning asosida ushbu ofertaga bir tomonlama o'zgartirish va qo'shimchalar kiritadi.

4.17. Bank mazkur shartnoma bo'yicha ko'rsatilgan ma'lum turdagi xizmatlar uchun komissiyani akseptsiz tarzda undiradi. Xizmat haqi olinadigan operatsiya turlari va komissiya miqdori bank tarifida belgilanadi.

4.18. Bank kartasi hisobvarag'idan chiqim qilingan e'tirozli operatsiyalar bo'yicha mijoz bankka yozma e'tiroz taqdim qilishi lozim.

4.19. mijozning xizmat ko'rsatish bilan bog'liq e'tirozlari to'lov tizimining qoidalarida belgilangan tartibda va muddatlarda bank tomonidan ko'rib chiqiladi. E'tirozli operatsiyalar uchun bank tarifiga muvofiq komissiya undiriladi.

4.20. Mijoz bank kartasidagi mavjud mablag'lardan savdo nuqtalarida o'rnatilgan to'lov terminallari, bankomatlar, elektron to'lov tizimlarining mobil ilovalari (va hokazo) orqali to'lov summasini ko'rsatgan holda bank kartasi Pin-kodini yoki SMS xabarnoma orqali kelgan tasdiq kodini tegishli qurilmaga yoki mobil ilovaga kiritish orqali foydalanadi.

4.21. Mijozning belgilangan tartibda ruxsati bilan boshqa shaxslar ham uning bank

kartasidan foydalanilishi mumkin, unda amaliyot yuzasidan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar yuzasidan bank javob bermaydi.

4.22. Mijozning majburiyatlari bo'yicha undiruv vakolatli organlar tomonidan uning bank hisobvaraqlariga qaratilganida, undiruv uchun yetarli bo'lgan mablag'lar qonunchilikda o'rnatilgan tartibda hisobdan chiqariladi va vakolatli organ tomonidan ko'rsatilgan hisobvaraqlarga o'tkazib beriladi.

4.23. Bank va boshqa to'lov tizimlari xizmat haqlari tegishli xizmat ko'rsatilgan sanada amalda bo'lgan Bank tariflarida hamda Qoidalarda belgilangan tartibda va miqdorda mijozning bank kartasi hisobvarag'idan akseptsiz hisobdan chiqariladi.

4.24. Bank kartasini ochish uchun bankning xizmat haqi to'lovi Mijoz tomonidan to'lovning istalgan shaklida amalga oshirishi mumkin. Bank belgilagan xizmat haqi to'lovi amalga oshirilmasdan bank kartasini taqdim qilishga yo'l qo'yilmaydi.

4.25. Bank tomonidan xizmat haqi tarifiga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Bunda, kiritilayotgan o'zgartirishlar kuchga kirishidan o'n kun oldin bankning internet tarmog'idagi www.davrbank.uz veb saytiga va/yoki Bankning rasmiy mobil ilovasiga joylashtiriladi.

4.26. Mijoz Bankka bog'liq bo'lmagan (telefon raqamining ish faoliyatida emasligi va hokazo) sabablarga ko'ra Bank tariflariga o'zgartirishlar kiritilganligidan xabarsiz qolishi, Bank tomonidan o'zgargan tariflar bo'yicha xizmat haqi undirishga to'sqinlik qilmaydi. Mijozning o'zgargan tariflar bo'yicha bank xizmatlaridan foydalaninishi uning bank tariflariga kiritilgan o'zgartirishlarga rozi ekanligini bildiradi.

4.27. Mijoz bank kartalarini ochish uchun ariza bergandan so'ng 30 kun ichida tayyor bo'lgan bank kartasini olib ketmagan taqdirda, olib ketilmagan bank kartasi mas'ul xodim tomonidan yo'q qilinadi.

5. Taraflarning huquqlari

5.1. Mijozning huquqlari:

- a) bank kartasidagi mablag'larini mustaqil tasarruf etish;
- b) bank kartasi aylanmalari bo'yicha bank tarifiga muvofiq ko'chirmalar olish;
- d) bankning bank kartalariga doir boshqa xizmatlaridan foydalanish;
- e) ofertaning qoidalarida ko'zda tutilgan tartibda bank kartasini bloklash yoki blokdan chiqarish to'g'risida bankka yozma yoki mobil ilovasi orqali elektron shaklda ma'lumot berish;
- f) shaxsan javobgarligi ostida bank kartasidan foydalanish yoki bank karta hisobvarag'idagi mablag'larini tasarruf qilish imkonini boshqa shaxslarga berish;
- g) qonunchilikda belgilangan boshqa huquqlardan foydalanish.

5.2. Bankning huquqlari:

- a) Mijozga "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat Qoidalari"ga muvofiq mijozni o'rnatilgan tartibda identifikatsiyalagan holda bank kartalarini foydalanishga taqdim etish;
- b) bank tariflarini mustaqil belgilash, bank kartasini chiqarish va unga xizmat ko'rsatganlik uchun xizmat xaqini bank tariflariga muvofiq akseptsiz undirish;
- d) mijozning bank karta hisobvarag'iga kelib tushgan mablag'larning asosligini amaldagi qonunchilik talablaridan kelib chiqib o'rganish, zarur hollarda o'tkazilayotgan amaliyotlar haqidagi qo'shimcha ma'lumotlar talab qilish;
- e) mijozning shaxsiga oid ma'lumotlarni qayta ishlash;

- f) taqdim qilingan hujjatlar nusxalarining to'g'riligiga gumon yoki boshqa zarurat paydo bo'lgan taqdirda, hujjatlarning asl nusxalarini taqdim qilinishini talab qilish;
- g) Mijoz tomonidan identifikatsiyalash uchun zarur bo'lgan hujjatlar taqdim etilmaganda, atayin noto'g'ri bo'lgan hujjatlar taqdim etilganda yoki qonun hujjatlariga va ushbu shartnomaga muvofiq so'ralgan hujjatlar taqdim etilmaganida hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda bank kartasi ochishni yoki bank kartasi bo'yicha operatsiyalarni bajarishni rad etish (Bank karta hisobvarag'iga pul mablag'larini kiritish operatsiyalari bundan mustasno);
- h) bank kartasi hisobvarag'i orqali shubhali operatsiya o'tkazilganligi aniqlanganida, o'tkazilgan operatsiyaning qonuniyligi to'g'risida mijozdan yozma tushuntirish xati olinguniga qadar bank mijozga xizmat ko'rsatishni to'xtatib turish, shubhali operatsiya o'tkazilishi natijasida bank karta hisobvarag'ida shakllangan mablag'lar chiqim qilinishini cheklash, doimiy ro'yxatdan o'tgan manzil bo'yicha mijozni o'rganish, shu jumladan, bevosita shartnomada ko'rsatilgan shaxs tomonidan operatsiyaning o'tkazilayotganligini o'rganish;
- i) Mijozning masofaviy bank xizmatlaridan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida foydalanilganligi haqida asosli shubhalar mavjud bo'lganda, bank kartasi orqali operatsiyalar o'tkazishni vaqtincha to'xtatib qo'yish hamda bank kartasini muomaladan chiqarish;
- j) Mijozning SMS banking xizmatiga ulangan telefon raqamiga ko'rsatilayotgan bank xizmatlari, ularning shartlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar va xabardor qilish lozim topilgan boshqa ma'lumotlarni SMS xabarnoma ko'rinishida yuborish;
- k) Mijozning kamida o'n kalendar kuni oldin ushbu shartnomada belgilangan tartibda xabardor qilish orqali bank tariflariga o'zgartirish kiritish;
- l) Mijoz tomonidan yo'qotilgan, shikastlangan yoki yaroqsiz holatga keltirilgan, shuningdek amal qilish muddati tugagan bank kartasini yangisiga almashtirib berilayotganda belgilangan tarifga asosan xizmat haqi undirish;
- m) Mijozning mobil aloqa vositasining almashtirilganligi to'g'risida bankning xabardor qilinmasligi oqibatida ushbu raqamga bank tomonidan yo'llangan SMS xabarnoma bo'yicha huquqiy oqibatlari yuzasidan javob bermaslik;
- n) Bank quyidagi holatlarda bank kartasi orqali operatsiyalar o'tkazishni vaqtincha to'xtatib qo'yish hamda bank kartasini muomaladan chiqarish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin:
- bank kartasi yoki uning rekvizitlaridan noqonuniy foydalanishni tasdiqlovchi holatlar mavjudligida;
 - bank kartasidan foydalanish vakolatiga ega bo'lmagan shaxslar tomonidan ishlatilganda;
 - bank kartalaridan foydalanish to'g'risidagi shartnomada ko'rsatilgan boshqa holatlarda;
- o) Mijoz yoki uning operatsiyasi sanksiya ta'sir doirasiga tushganda yoki tushish xavfi mavjud bo'lganda operatsiyani o'rganish maqsadida:
- operatsiyani o'rganish maqsadida mijozdan qo'shimcha ma'lumotlarni so'rash;
 - operatsiya miqdorini chegaralash;
 - operatsiyani cheklash(rad etish);

- mijozning anketasidagi ma'lumotlar, profiliga nomuvofiq bo'lgan hollarda xizmat ko'rsatishni rad etish va mijoz bilan shartnomani bir tomonlama bekor qilish;

p) Norezident-mijozlarga ochilgan xalqaro to'lov kartalarini xalqaro to'lov tizimlarining emissiya tartibi talablari foydalanuvchi tomonidan buzilgan taqdirda, bank tomonidan bir tomonlama ushbu mijoz bilan tuzilgan shartnomani bekor qilish va kartani bloklashi mumkin;

q) O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan norezident-mijozlar tomonidan respublika banklaridagi hisobvaraqlarni ochish va ulardan foydalanish tartibi yoki xalqaro to'lov tizimining emissiya tartibi o'zgargan taqdirda bank tomonidan bir tomonlama o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqiga ega;

r) Quyidagi hollarda, mijozning rozilgisiz, uning Bank kartasi hisobvarag'idan mablag'larni ko'chirish:

- bank tarifiga ko'ra, bank xizmatlari uchun to'lovlarni;

- bank kartasi hisobvarag'iga mablag'lar noto'g'ri yoki adashib kirim qilinganda;

- karta hisobraqamidagi aktiv qoldiqdan ortiq miqdorda tranzaksiyalar amalga oshirilganda, ushbu mablag'lar mijoz tomonidan 3 (uch) kunlik muddatda ixtiyoriy ravishda qoplanmagan taqdirda.

s) Mijozga yangi bank mahsulotlarini sotish va xizmatlar ko'rsatish maqsadida unga tegishli bo'lgan ma'lumotlardan foydalanish, shu jumladan mijoz to'g'risidagi ma'lumotlarni ichki va tashqi manbalardan olish, qayta ishlash, tahlil qilish hamda mijozning to'lov qobiliyatini o'rganish orqali unga mos keluvchi bank mahsulot va xizmatlarini taklif qilib borish

t) qonun hujjatlariga va ushbu shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

6. Taraflarning majburiyatlari

6.1. Mijozning majburiyatlari:

a) bank kartasidan foydalanishdan oldin oferta shartlari bilan to'liq tanishib chiqish va uni akseptlanishi bo'yicha kelib chiqadigan huquqiy oqibatlardan xabardor bo'lish;

b) bank kartasini ushbu shartnomaga muvofiq olganidan so'ng unga darhol o'zining pin-kodini o'rnatish;

d) SMS banking xizmatiga ulangan telefon raqami ish holatida bo'lishini va ushbu telefon raqamiga yuborilayotgan SMS xabarlar bilan begona shaxslarni tanishishlariga sharoit yaratmaslik, jumladan SMS xabarnoma orqali keladigan bir martalik tasdiqlovchi kodlarni, mobil ilovalarga kirish huquqini beruvchi parollarni begona shaxslarga taqdim etmaslik, mobil telefon raqami o'zgarganda, bankni darhol xabardor qilish;

e) bank kartasiga o'rnatilgan pin-kodini yoki SMS banking tizimiga ulangan telefon raqamiga SMS xabar orqali kelgan tasdiq kodini boshqa shaxslarga ma'lum qilganlik yohud boshqacha usulda bank karta hisobvarag'idagi mablag'larni tasarruf qilish imkonini boshqa shaxslarga berganlik oqibatlari uchun shaxsan javob berish;

f) Bank kartasidan faqat bank karta hisobvarag'idagi qoldiq mablag' doirasida foydalanish. Agarda bank karta hisobvarag'ida salbiy qoldiq xosil bo'lgan taqdirda, qarz summasini, qarz vujudga kelgan sanadan boshlab 1 oydan kechiktirmasdan qoplash;

g) me'yoriy hujjatlar talablari va mazkur shartnomada nazarda tutilgan holatlarda, bankning so'roviga ko'ra, bank karta hisobvarag'i orqali o'tkazilayotgan amaliyotlar haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni va yozma tushuntirishlarni taqdim qilish;

h) bank kartasi yo'qotilgan, o'g'irlangan yoki beruxsat foydalanilgan holatlarda bank

kartasi orqali operatsiyalarni o'tkazishni vaqtincha to'xtatib qo'yish uchun darhol bankka murojaat qilish yoki ushbu amaliyotni bankning mobil ilovasi orqali mustaqil amalga oshirish;

i) Mijozni identifikatsiyalash uchun zarur bo'lgan hujjatlar (masalan, shaxsni tasdiqlovchi xujjatini aslini) bankka asli bilan tashinishi va undan nusxa olishi uchun taqdim etish, shuningdek shaxsini tasdiqlovchi hujjati ma'lumotlari o'zgarganda, 3 (uch) muddatda ushbu ma'lumotlarini bankka taqdim etish;

j) Bank kartasi orqali bajarilgan amaliyotlar uchun bank xizmatlari haqini Bank tariflarida nazarda tutilgan tartibda va miqdorda to'lanishini ta'minlash;

k) Bank kartasi hisobvarag'iga noto'g'ri kirim qilingan mablag'lar haqida bankni 2 (ikki) bank ish kuni ichida xabardor qilish va ushbu mablag'larni 3 (uch) bank ish kuni ichida qaytarish;

l) Bank kartasini olish bo'yicha to'ldirib berilgan arizada aks ettirilgan ma'lumotlar o'zgarganda bu haqida, 5 bank ish kunida yozma ravishda xabardor qilish;

m) O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq to'lanishi lozim bo'lgan soliq va boshqa majburiy to'lovlar bilan bog'liq bo'lgan hisob- kitoblarni mustaqil tarzda bajarish;

n) Bankning internet tarmog'idagi www.davrbank.uz sahifalari/axborot stendlari orqali bankning boshqa to'lov tizimi xizmatlari bilan doimiy ravishda tanishib borish.

o) mijoz individual dizayndagi bank kartasini buyurtma berishidan oldin bank tomonidan individual bank kartalarini taqdim etish qoidalari va shartlari bilan tanishib chiqishi zarur. Bank kartalarini taqdim etish qoidalari va shartlari bankning rasmiy veb sayti va/hamda Bankning rasmiy mobil ilovasi orqali tanishib olishi mumkun.)

p) mijozning majburiyatlariga kirishi nazarda tutilgan boshqa me'yoriy hujjatlar talablarida qayd etilgan majburiyatlarga ega.

6.2. **Bankning majburiyatlari:**

a) bank kartasini ushbu shartnomada belgilangan tartibda va muddatda chiqarish hamda o'rnatilgan tartibda egasiga topshirish;

b) bank kartalari orqali o'tkazilgan operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblarni o'z vaqtida va to'g'ri amalga oshirish;

d) mijozning so'rovi asosida bank kartasidan foydalanish qoidalari hamda ular orqali amaliyotlarni amalga oshirish bo'yicha Bank va Mijozning javobgarlik chegarasi to'g'risida axborot berish;

e) bank ofertasini akseptlanmasdan oldin belgilangan shaklini mijoz tomonidan mobil aloqa vositasi orqali elektron shaklda yuklab olish imkoniyatini yaratish;

f) bank kartasi hisobvarag'ini to'ldirish uchun mijoz hisobvarag'iga kelib tushgan pul mablag'larini keyingi bank ish kunidan kechiktirmasdan kiritib qo'yish. Agar pul mablag'larini bank karta hisobvarag'iga o'tkazish dam olish yoki bayram kunlariga to'g'ri kelsa, pul mablag'larini o'tkazish dam olish yoki bayram kunlaridan keyingi ish kunida amalga oshiriladi;

g) Mijozdan bank kartasi yo'qolganligi yoki o'g'irlanganligi to'g'risida xabarnoma olinganda, bank kartasi orqali operatsiyalarni o'tkazishni vaqtincha to'xtatib qo'yish hamda bank kartasini muomaladan chiqarish choralarini ko'rish;

h) Shartnoma bekor qilinib, bank karta hisobvarag'i yopilganidan keyin bank kartasi hisobvarag'ida mavjud bo'lgan pul mablag'larini 7 (yetti), xalqaro bank kartasi hisobvarag'ida mavjud bo'lgan pul mablag'larini 15 (o'n besh) kalendar kundan kechiktirilmagan holda, minimal balans qoldig'i (sug'urta depozit) bilan mijoz tomonidan ko'rsatilgan tegishli hisobvarag'iga

o'tkazib berish. Bunda karta xisob varag'i va karta balansi bir xil(teng) bo'lishi kerak;

i) Bank tariflariga kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risida, bunday o'zgartirishlarni amalga kiritishdan avval kamida o'n kalendar kuni oldin Bankning www.davrbank.uz veb- saytida yoki Bankning rasmiy mobil ilovasida e'lon joylashtirish hamda Mijozni ushbu shartnomada belgilangan tartibda xabardor qilish;

j) Bank kartasini amal qilish muddatidan avval to'xtatish to'g'risida Mijozni kamida o'n kalendar kuni oldin ushbu shartnomada belgilangan tartibda xabardor qilish;

k) Bankning majburiyatlariga kirishi nazarda tutilgan boshqa me'yoriy hujjatlar talablarida qayd etilgan majburiyatlarga ega.

6.3. Taraflar mazkur shartnoma doirasida bo'lgan munosabatlarida O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish qonunchiligi talablariga rioya etish majburiyatini o'z zimmalariga oladilar.

7. Taraflarning javobgarliklari

7.1. Taraflar mazkur shartnoma talablaridan kelib chiqadigan majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun tegishli javobgarlikka tortiladilar.

7.2. mijozning javobgarliklari:

a) bank kartasi hisobvarag'i orqali amalga oshirilgan operatsiyalarning qonuniyligi va bankka taqdim etilgan ma'lumotlar va hujjatlarning to'g'riligi uchun;

b) bank karta hisobvarag'idan noto'g'ri foydalanishi yoki noqonuniy harakatlari natijasida Bankka yetkazilgan zararlarni to'liq qoplanishi uchun;

d) bank kartasi yo'qolganligi yoki o'g'irlanganligi to'g'risida bankni ushbu shartnomada belgilangan tartibda xabardor qilmaganligi oqibatida, bank kartasi orqali amaliyotlar amalga oshirilganligi uchun;

e) bank kartasi pin-kodini yoki Mijozning SMS banking tizimiga ulangan telefon raqamiga SMS xabar orqali kelgan tasdiq kodini boshqa shaxslarga berganlik oqibatlari uchun;

f) qo'shincha bank kartari ishlatilishi, bank karta xisob raqamidagi kamomadlar va ularning qoplanishi bo'yicha, shuningdek qo'shimcha bank kartasi bo'yicha kelib chiqadigan xar qanday qonun buzilishlari va ularning oqibatlari yuzasidan asosiy bank kartasi egasi javobgar hisoblanadi.

g) qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa holatlarda javobgar hisoblanadi.

7.3. Bankning javobgarligi:

a) ofertada belgilangan shartnlarni bajarmaganligi uchun;

b) Bank kartasi "Stop list"ga qo'yilgandan so'ng bank kartasidan amaliyot o'tganligi uchun;

d) qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa holatlarda javobgar hisoblanadi.

7.4. Mijoz oldida Bank quyidagi holatlarda javobgar hisoblanmaydi:

a) agar mijoz shartnomada belgilangan qoida va tartiblarni buzgan bo'lsa;

b) mijoz tomonidan noqonuniy harakatlar sodir qilingan holatda;

d) bank kartasining yo'qolganligi yoki undan ruxsatsiz foydalanilganligi fakti haqida bank kartasining saqlovchisi tomonidan Bank xabardor qilinmaganda.

e) bank kartasiga bog'lik ma'lumotlar (pin-kod, bir martalik SMS kod va boshqalar) mijoz tomonidan uchinchi tarafga ma'lum qilingan holatda;

f) xalqaro va mahalliy to'lov tizimida, shuningdek banklararo elektron to'lov tizimlarida ro'y berishi mumkin bo'lgan uzilishlarda;

- g) mijozning bank kartasi yo‘qolganligi yoki shikastlanganligi to‘g‘risida arizasi bilan bankka murojaat etmaganligi natijasida, bank kartasi o‘z vaqtida “Stop list”ga qo‘yilmaganida;
- h) to‘lov tizimlarida uzilishlar ro‘y berganida;
- i) to‘lov tizimlarining xizmatlaridan foydalanganlik uchun tegishli to‘lov tizimi o‘z tarifiga muvofiq undirgan to‘lovlar uchun;
- j) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa holatlarda.

8. Fors - major holatlari

8.1. Taraflar ushbu shartnoma bo‘yicha majburiyatlarning qisman yoki to‘liq bajarilmaganligi uchun, agar ushbu vaziyat shartnoma tuzilgandan keyin Taraflar oldindan ko‘ra olmagan, oqilona choralar bilan bartaraf etish mumkin bo‘lmagan favqulodda tuzdagi hodisalar natijasida vujudga kelgan yengib bo‘lmaydigan kuch holatlarining oqibatlarini hisoblansa, javobgarlikdan ozod etiladi.

8.2. Fors-major holatlariga asoslanadigan Taraf ikkinchi Tarafni bunday holatlar boshlanganligi to‘g‘risida yozma ravishda zudlik bilan xabardor qilishi va bunday holatlarning boshlanishi faktini tasdiqlovchi tegishli organ tomonidan berilgan hujjatni taqdim etilishi lozim. Majburiyatni bajarishni imkoni bo‘lmaganligini isbotlash fors-major holatlari yuz berganligiga asoslanayotgan taraf zimmasiga yuklatiladi.

9. Nizolarni hal etish

9.1. Taraflar o‘rtasida kelib chiqadigan kelishmovchiliklarni muzokara yo‘li bilan hal etadilar.

9.2. Taraflar dalil sifatida baxs yoki kelishmovchiliklarni hal qilishda amalga oshirilgan tranzaksiyalarni o‘zida saqlovchi qurilmalardagi ma‘lumotlarga tayanishi mumkin.

9.3. Yozma murojaatlar, taraflarning biri imzo qo‘yib qabul qilib olganligi yoki manziliga pochta orqali yuborilganligi to‘g‘risida pochta kvitansiyasi mavjud bo‘lganda, taraflar tomonidan qabul qilib olingan deb hisoblanadi.

9.4. Tomonlar o‘rtasida yuzaga kelgan nizo va kelishmovchiliklar muzokara yo‘li bilan hal qilinmagan taqdirda, ular O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, ushbu shartnoma asosida bank kartasini chiqargan Amaliyot Boshqarmasi, filial va BXM, yoki boshqa bo‘linmasi faoliyat ko‘rsatuvchi hududdagi sudga hal etiladi.

10. Shartnomani amal qilish muddati, uni bekor qilish tartibi, boshqa shartlar

10.1. Mazkur shartnoma nomuayyan muddatga tuzilgan, taraflar majburiyatlarini to‘liq bajargunlariga qadar amalda bo‘ladi.

10.2. Mazkur ofertada nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 iyuldagi O‘RQ-547 sonli “Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun talablariga muvofiq, Mijozga doir har qanday, shu jumladan avtomatlashtirilgan ma‘lumotlarga ishlov berish va saqlash, shuningdek Mijozga doir ma‘lumotlarini yig‘ish, tizimlashtirish, saqlash, o‘zgartirish, foydalanish, berish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish va yo‘q qilish, shuningdek ushbu ofertada nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish uchun Shaxsga doir ma‘lumotlarni uchinchi shaxslarga berilishiga o‘z roziligini beradi.

10.3. Shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilinadi.

10.4. Ushbu shartnoma mijozning talabiga binoan istalgan vaqtda bank xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha to‘lovlar amalga oshirganidan keyin bekor qilinishi mumkin.

10.5. Mijozning tashabbusi bilan shartnoma bekor qilinganida, shartnoma doirasida muomalaga chiqarilgan bank kartasi bankka qaytarilishi lozim.

10.6. Shartnomani bekor qilinishi, bank karta hisobvarag'ini yopish uchun asos bo'ladi.

10.7. Hech bir taraf ushbu shartnomaning qog'oz ko'rinishini saqlashga va imzolashga majbur emas. Shartnomaning amaldagi tahriri Bankning www.davrbank.uz veb-sayti yoki mobil ilovasidan PDF-fayl ko'rinishida yuklab olinishi mumkin.

10.8. Mazkur shartnomada ko'zda tutilmagan, u bilan bog'liq bo'lgan barcha munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

11. Bankning rekvizitlari

11.1. Yuridik manzili: Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Navoiy-Zarqaynar ko'chasi, Blok A;

STIR: 203709707;

Telefon: +998 71 207-40-40;

Veb-sayti: www.davrbank.uz